

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY
DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARINING FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI**

Ibodullo Xayrullo Jaxongir o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Yuridik fakulteti tayanch doktoranti

El.pochta: khayrullo261996@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonlarining mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga ta'siri va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Unda davlat boshqaruvini raqamlashtirish orqali xalq deputatlari kengashlari ish samaradorligini oshirish, qarorlar qabul qilishda shaffoflikni ta'minlash va saylovchilar bilan elektron muloqotni yo'lga qo'yish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida vakillik organlari faoliyatini modernizatsiya qilish hamda boshqaruvda "aqlli texnologiyalar"ni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, mahalliy Kengash, e-deputat, elektron hukumat, ochiqlik, jamoatchilik nazorati, Big Data, "E-qaror", e-demokratiya.

Hozirgi global axborotlashuv davrida davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish nafaqat texnik zaruriyat, balki demokratik islohotlarning muhim shartiga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining xalq oldidagi mas'uliyati va hisobdorligi yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi barcha bo'g'indagi

davlat organlari, xususan, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini tubdan modernizatsiya qilishni ko'zda tutadi [1].

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari (Xalq deputatlari Kengashlari) hududiy rivojlanishning strategik yo'nalishlarini belgilovchi va ijro hokimiyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi asosiy bo'g'indir. Raqamli transformatsiyani joriy e'tilishi ushbu organlarning faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yish va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya – bu faqat texnologiyalarni joriy etish emas, balki boshqaruv jarayonlarini qayta ko'rib chiqish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan kompleks jarayondir. Akademik S.S. Gulyamov ta'kidlaganidek, “Raqamli boshqaruv – bu ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimidir” [2]. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida bu jarayon “Elektron parlamentarizm”ning hududiy darajadagi ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining xalq oldidagi mas'uliyati va hisobdorligi kuchaytirilgan. Raqamlashtirish ushbu hisobdorlikni ta'minlashning eng samarali vositasi hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda mahalliy vakillik organlarini takomillashtirishning bir necha muhim tendensiyalari kuzatilmoqda.

Birinchidan, elektron qarorlar qabul qilish orqali. Bunda, O'zbekistonda joriy etilgan “E-qaror” elektron tizimi mahalliy hokimiyat organlari qarorlarini qabul qilishda inson omilini kamaytirish va korrupsiyaviy xavflarni bartaraf

etishga xizmat qilmoqda. Endilikda har bir qaror loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, ochiq reyestrda joylashtiriladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, birgina 2023-yilning o'zida ushbu tizim orqali 150 mingdan ortiq hujjat huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan [3]. Bu korrupsiyaviy xavflarni 30% gacha kamaytirish imkonini berdi.

Ikkinchidan, gibril parlamentarizmning joriy etilishi. Xalq deputatlari Kengash sessiyalarini onlayn formatda o'tkazish, deputatlarning masofaviy ovoz berish imkoniyati va sessiyalarni ijtimoiy tarmoqlar orqali jonli efirda translyatsiya qilish shaffoflikni yangi bosqichga olib chiqdi.

Uchinchidan, raqamli muloqot va elektron petitsiyalarning qo'llanilishi. "Mening fikrim" portali kabi platformalar mahalliy darajaga ham tushishi lozim. Fuqarolarning hududiy muammolar (yo'l qurilishi, ichimlik suvi, maktablar ahvoli) bo'yicha elektron murojaatlari deputatlar tomonidan onlayn rejimda ko'rib chiqilishi tendensiyaga aylanmoqda.

To'rtinchidan, deputatlar faoliyatining raqamli monitoringi. Bir qator rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Estoniya va Janubiy Koreyada deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari, sessiyalardagi ishtiroki va tashabbuslari maxsus "Raqamli profil" (Digital Profile) orqali baholab boriladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida mahalliy davlat vakillik organlari faoliyatini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlarning muvaffaqiyatli modellarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda jahon amaliyotida "Digital Local Governance" (Mahalliy raqamli boshqaruv) tushunchasi ustuvor yo'nalishga aylangan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya mahalliy boshqaruv samaradorligini o'rtacha 40% ga oshiradi.

Estoniyada, “VOLIS” tizimi orqali mahalliy deputatlar qaror loyihalarini onlayn rejimda muhokama qiladilar va ovoz beradilar. Fuqarolar uchun, har bir sessiya davomida ko‘rilayotgan masalani onlayn kuzatishi va real vaqt rejimida o‘z taklifini kiritishi mumkin. Bu tizim orqali qog‘oz sarfi 90% ga qisqargan [4].

Janubiy Koreyada esa, mahalliy Kengashlar qaror qabul qilishda Katta ma’lumotlar (Big Data) tahliliga tayanadi. Masalan, tuman budjetini taqsimlashda hududdagi aholi zichligi, transport oqimi va ijtimoiy ehtiyojlar SI (sun’iy intellekt) yordamida tahlil qilinib, deputatlarga tayyor vizuallashtirilgan hisobot shaklida taqdim etiladi. Bu esa sub’ektiv qarorlar qabul qilish xavfini kamaytiradi [5].

Germaniya Federativ Respublikasining mahalliy Kengashlarida “Open Council Data” standarti joriy etilgan. Unga ko‘ra, Kengashning barcha bayonnomalari, ovoz berish natijalari va deputatlarning daromadlari deklaratsiyasi mashina o‘qiydigan formatda (JSON, XML) e’lon qilinadi [6]. Bu jamoatchilik nazoratini avtomatlashtirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini raqamlashtirishning huquqiy asosi sifatida yana O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi F-68-sonli farmoyishini ko‘rsatish mumkin. Unga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvardan boshlab davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan “Byurokraziyani bartaraf etish — 2030” dasturi ishga tushirish va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

(a) davlat xizmatlaridan tez va qulay foydalanish orqali fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash;

(b) tadbirkorlikni rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorlikni oshirish;

(v) raqamli va davlat boshqaruvi sohalarida mamlakatimizning ijobiy imijini shakllantirish;

(g) ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish va jarayonlarning shaffofligini oshirish orqali suiiste'molchilik xavfini kamaytirish [7].

2021-yildan boshlab barcha darajadagi hokimliklar va mahalliy Kengashlar qarorlari "E-qaror" tizimi orqali qabul qilinmoqda. Mazkur tizim orqali adliya organlari tomonidan 3,5 mingga yaqin qonunchilikka zid qaror loyihalari to'xtatib qolingan. Bu esa o'z navbatida, raqamli nazoratning naqadar samarali ekanini ko'rsatadi.

Bugungi kunda mahalliy Kengashlarning eng muhim funksiyalaridan biri - budjet ustidan nazoratdir [8]. "Ochiq budjet" portali orqali aholi taklif berishi va deputatlar ushbu takliflarni tasdiqlashi raqamli demokratiyaning yorqin namunasidir.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi tuman va shahar Kengashlarining barchasi internet tarmog'iga ulangan [9]. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, deputatlarning atigi 42 foizi planshet yoki kompyuter orqali elektron hujjat aylanish tizimidan muntazam foydalanadi. Bu ko'rsatkich raqamli ko'nikmalarni oshirish zaruriyatini tug'diradi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya yo'lida bir qator to'siqlar mavjud. Ayrim hududiy deputatlarning axborot kommunikatsiya vositalari bilan ishlash malakasi yetarli emas. Chekka tumanlarda internet aloqasining barqaror emasligi.

Mahalliy ma'lumotlar bazalarini himoyalash tizimining mukammal emasligi, yani kibexavfsizlikka to'laonli javob bermasligi kuzatiladi.

Yo'qoridagi to'siqlarni bartaraf etish maqsadida, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini yanada yaxshilash uchun quyidagilar takliflarni ilgari surish mumkin bo'ladi.

Birinchiidan, "Raqamli Deputat" platformasini yaratish zarurati. Ushbu platforma orqali deputat o'z saylov okrugidagi muammolarni xarita ko'rinishida ko'rishi va ijro organlariga elektron so'rov yuborishi kerak.

Ikkinchiidan, sun'iy intellekt integratsiyasini joriy etish. Aholi murojaatlarini avtomatik tahlil qilish va eng dolzarb muammolarni Kengash sessiyasi kun tartibiga chiqarishga erishiladi.

Uchinchiidan, elektron ovoz berish tizimini. Bunda barcha tuman Kengashlarida sessiya davomida shaffof elektron ovoz berish qurilmalarini joriy etish kerak.

Raqamli transformatsiya sharoitida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon nafaqat texnik modernizatsiya, balki yangicha "Raqamli demokratiya" modeliga o'tishni anglatadi. Tadqiqot natijasida quyidagi konseptual xulosalarga kelish mumkin.

Mahalliy Kengashlar faoliyatining raqamlashtirilishi davlat boshqaruvida "Inson qadri uchun" tamoyilini amalda ta'minlashning eng qisqa yo'lidir. Raqamli platformalar deputat va saylovchi o'rtasidagi vaqt va masofa to'siqlarini bartaraf etib, vakillik organlarining jamiyat oldidagi hisobdorligini real vaqt rejimiga o'tkazadi.

Yo'qorida keltirilgan davlatlar misolida xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati nafaqat dasturiy ta'minotga, balki "Raqamli madaniyat"ning shakllanganligiga ham bog'liq. Mahalliy deputatlarning raqamli ko'nikmalarini (Digital Literacy) oshirmasdan turib, eng zamonaviy tizimlarni joriy etish kutilgan samarani bermaydi.

O'zbekistonda "E-qaror" va "Ochiq budget" kabi tizimlarning muvaffaqiyatli joriy etilishi mahalliy boshqaruvda shaffoflikni ortga qaytmas jarayonga aylantirdi. Biroq, vakillik organlarining ijro hokimiyati ustidan nazorat funksiyasini to'liq raqamlashtirish uchun hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud.

Ushbu maqolamiz doirasida ishlab chiqilgan ilmiy takliflar sifatida quyidagilarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunga "Elektron sessiya", "Masofaviy deputatlik so'rovi" va "Raqamli hisobdorlik" tushunchalarini kiritish hamda ularning huquqiy maqomini mustahkamlash;

Mahalliy Kengash deputatlari uchun barcha resurslarni, jumladan, qonunchilik bazasi, hududiy statistika, fuqarolar murojaatlari, budget tahlilini birlashtiruvchi yagona mobil ilova va portalni ishga tushirish;

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tahlil qilishda "aqlli" ma'lumotlar bazasidan foydalanish amaliyotini yo'lga qo'yish. Bunda sun'iy intellekt yordamida hududning "Raqamli egizagi" (Digital Twin) modelini yaratish va muammolarni prognoz qilish lozim;

Kiber-immunitetni shakllantirish orqali, Mahalliy davlat organlarida axborot xavfsizligini ta'minlashning yangi tizimini joriy etish, deputatlarning shaxsiy ma'lumotlari va ovoz berish natijalarining daxlsizligini kafolatlash.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, raqamli transformatsiya mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini yanada ochiq, moslashuvchan va samarali tizimga aylantiradi. Bu esa, o'z navbatida, hududlarda qonun ustuvorligini ta'minlash va aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini muttasil oshirib borishning bosh garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son;
2. Gulyamov S.S. Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv nazariyasi. Darslik. – T., 2020. – B. 112;
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yillik hisoboti, 2023-yil yakunlari;
4. Vinkel P. Digital Democracy in Estonia: Local Government Perspective. – Tallinn University Press, 2021. – P. 88;
5. Kim S. Smart Governance and Big Data in South Korea. – Journal of Public Administration, 2022. Vol. 14. – P. 202;
6. Open Data Handbook. "Local Government Transparency Guidelines". — Open Knowledge Foundation, 2023;

